



VIRTUAL REALITY AS A SOCIO-PHILOSOPHICAL PROBLEM IN THE INFORMATION SOCIETY

Durdigul Khudoyberganova

Teacher at the department of "Social sciences"

Urgench State Medical Institute

Urgench, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: virtual reality, globalization, "phony," internet, ideology, transformation.

Received: 24.11.25

Accepted: 25.11.25

Published: 26.11.25

Abstract: This article explores the transformation of human consciousness in the context of the information society during the era of globalization under the influence of virtual reality. It examines the changes in perception, value orientations, and social interactions that occur within the space of virtual being. Special attention is given to the philosophical interpretation of the virtual world phenomenon and its role in shaping new forms of communication, thinking, and personal identity. The study also analyzes both the positive and negative impacts of virtual environments on individual and collective consciousness.

AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA VIRTUAL REALLIK IJTIMOY-FALSAFIY MUAMMO SIFATIDA

Durdigul Xudoyberganova

"Ijtimoiy fanlar" kafedrasi o'qituvchisi

Urganch davlat tibbiyot instituti

Urganch, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Virtual reallik, globallashuv, "phony", internet, mafkura, transformatsiya.

Annotatsiya: Ushbu maqola, globallashuv davrida axborotlashgan jamiyatda virtual borliqning inson ongini qanday transformatsiya qilishi tushuncha beradi. Insoniy munosabatlar, axloqiy qarashlar, va ijtimoiy aloqalarni virtual olamning ko'lamli ta'siriga ega bo'lgan tajribalarga e'tibor beradi. Shu bilan birgalikda virtual olam o'zi nima? U bizning hayotimizga

qay tarzda kirib keladi? Uning inson ongiga salbiy va ijobiy ta'siri kabi savollarning javobini topishga ko'maklashadi.

ВИРТУАЛЬНАЯ РЕАЛЬНОСТЬ КАК СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКАЯ ПРОБЛЕМА В ИНФОРМАЦИОННОМ ОБЩЕСТВЕ

Дурдигуль Худойберганова

Преподаватель кафедры “Общественных наук”

УрГМИ

Ургенч, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: виртуальная реальность, глобализация, «phony», интернет, идеология, трансформация.	Аннотация: В данной статье рассматривается, каким образом виртуальная реальность в информационном обществе эпохи глобализации трансформирует человеческое сознание. Особое внимание уделяется человеческим отношениям, моральным взглядам и социальным связям, находящимся под масштабным влиянием виртуального мира. В то же время помогает найти ответы на такие вопросы, как: что такое виртуальный мир? Как он проникает в нашу жизнь? Каково его негативное и позитивное влияние на человеческий разум.
--	--

Kirish. XX asrning ikkinchi yarmida yangi axborot texnologiyalari tufayli barcha iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarning tezlashuvi sodir bo'ldi va jamiyatning o'zi “axborot jamiyati” deb atala boshlandi.

Ommaviy axborot vositalari munosabatlarning yangi shakllarini, yangicha dunyoqarashni, dunyo va undagi insonga yangi qarashni yaratishga imkon berdi. Texnologiya ijtimoiy tuzilma va jamoatchilik ongini siyosiy vositalar va ijtimoiy islohotlarga qaraganda ancha samaraliroq o'zgartirdi, chunki texnologik jamiyatda ijtimoiy munosabatlarning aksariyati shaxsiy foydalaniladigan texnik vositalar - telefon, televizor, kompyuter, Internet orqali amalga oshirilmoqda. Bunda inson o'z tanlovida erkindir — u texnologiyalardan foydalanishi ham, foydalanmasligi ham mumkin, biroq bugungi kunda deyarli ularsiz yashay olmaydi va o'zini uni qurshab turgan barcha mashinalarga (texnik vositalarga) moslashtirishi zarur. Mazkur jarayonlar natijasida inson tafakkuri, ijtimoiy munosabatlari, muloqot shakllari va o'zini anglash uslubi tubdan o'zgarib, yangi ijtimoiy-falsafiy tushuncha — “virtual inson” tushunchasi shakllanmoqda.

Asosiy qism. XX asr boshlarida ommaviy foydalanishga kiritilgan simsiz telegraf va telefon nafaqat odamlar o'rtasidagi aloqalar sonining keskin oshishini ta'minladi, balki muloqotning sifatini ham butunlay o'zgartirdi. Bugungi kunda bunga e'tibor qaratilmaydi, chunki bu hayotning odatiy qismiga aylanib ulgurgan. Ammo o'tgan asrning 20-yillarida Amerikada telefon keng tarqalgan davrda, bu hodisa keng jamoatchilikka kuchli ta'sir ko'rsatdi. Muloqotga "phony" so'zi kirib keldi, u "telephone" so'zidan olingan bo'lib, uning faol shakllari — "phony up" (aldamoq) va "phony it up" (bir narsani boshqasi sifatida ko'rsatmoq) edi. O'sha davrda bu hodisa haqiqiy insonni uning tovushli "soxta" ko'rinishi bilan almashtirish holati sifatida qabul qilingan.

Telefondan keyin kino, televideniya va nihoyat Internet paydo bo'ldi. Ular hayotizmizda yangi madaniyatni — virtual madaniyatni yaratdi. Bu madaniyat dastlab paydo bo'lgan davrda "phony culture" — ya'ni "almashtirish madaniyati" deb atalgan.

Fransuz davlat arbobi Napoleonning ta'biri bilan aytganda, "Tasavvur dunyoni boshqaradi, insonni esa faqat uning tasavvuriga ta'sir etish orqaligina boshqarish mumkin". Darhaqiqat inson tasavvurining qudrati cheksiz – turli g'oyalar ko'pchilikning tasavvurini o'ziga jalb qilib, asrlar davomida dunyoni o'zgartirib kelmoqda. XIX va XX asrning birinchi yarmida dunyoni siyosiy va iqtisodiy mafkura o'zgartirdi. Ispan faylasufi Ortega-i-Gasset XX asrning birinchi yarmida mafkuraning vazifasi haqida shunday yozgan edi: "Mafkuraning vazifasi – bu haqiqiy, beqaror va irrasional dunyoni ikki ma'nolikka o'rin qolmaydigan dunyo bilan almashtirishdir". Ya'ni mafkura ushbu ma'noda inson ongida murakkab haqiqatni soddalashtiruvchi, uni "tushunarli" shaklga keltiruvchi mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. U insonni haqiqatdagi ziddiyatlardan, beqarorlikdan va irratsionallikdan "himoya qiladi", lekin ayni paytda uni haqiqatdan uzoqlashtiradi. Ortega-i-Gasset nazariyasiga tayansak, virtual olam inson tafakkurini transformatsiya qiladi, chunki u beqaror dunyoni soddalashtirilgan shaklda ko'rsatadi. Shu sababli, inson ongini manipulyatsiya qilish uchun qulay muhit yaratadi. Kimki bu virtual reallikni nazorat qilsa, u inson ongini ham boshqaradi.

Axborotlashgan jamiyatda shakllanayotgan virtual inson — bu o'z mavjudligini raqamli texnologiyalar orqali qayta qurayotgan, biroq shu jarayonda tabiiy va ijtimoiy mohiyatining ayrim jihatlaridan uzoqlashayotgan mavjudotdir. Virtual insonning paydo bo'lishi inson evolyutsiyasining tabiiy davomi sifatida ko'rinsa-da, u insonning ontologik, axloqiy va ijtimoiy muvozanatini yangi sinovlarga duchor etmoqda. Axborot va kommunikatsiya endilikda zamonaviy makonning ajralmas tarkibiy qismlariga aylandi. "Axborotlashtirish - bu jamiyatning barcha a'zolari va uning turli institutlarining xabardorlik darajasini saqlab qolishni ta'minlash, mehnat sifati hamda odamlarning turmush sharoitini tubdan yaxshilash uchun yetarli bo'lgan

axborot texnologiyalarini inson faoliyatining barcha sohalarida ommaviy qo'llashga qaratilgan global ijtimoiy-texnik jarayondir"[2-305].

Shunday qilib, axborotlashtirish aholining ta'lim, madaniyati va manfaatli ijtimoiy-madaniy o'zgarishlari garovi sifatida namoyon bo'ladi. Insonni ijodkor shaxs va ijtimoiy ijod subyekti sifatida shakllantirish orqali axborot va aloqa o'zini shaxs va umumiy ijtimoiy miqyosda rivojlanish barqarorligiga ta'sir eta oladigan eng muhim omil sifatida namoyon etadi, hamda "axborot" so'zining zamirida aslida bilim emas, balki aniq aloqa mujassam bo'ladi.

Sankt-Peterburglik sotsiolog Dmitriy Ivanov ta'kidlaganidek, zamonaviy va ko'p axborotga boy inson – bu ko'proq narsani biladigan inson emas, balki ko'proq muloqotlarda ishtirok etadigan insondir[5-96]. Shunday qilib, zamonaviy insonning hayoti endi bizning voqeligimizga tobora chuqurroq kirib borayotgan, hayotning deyarli barcha sohalarida inson bilan yonma-yon yashaydigan turli xil texnik qurilmalar va gadjetlar bilan chambarchas bog'liq. Ehtimol, hozirda kompyuterlar ishtirok etmaydigan inson faoliyati turini topish qiyindir. Ular kognitiv, mehnat va kommunikativ (ijodiy, dam olish va boshqalar) inson hayoti bilan bog'liq.

Endilikda inson faoliyatining shunday bir sohasi topilishi qiyinki, unda kompyuterlar ishtirok etmasa: ular insonning bilish jarayoni, mehnati, muloqoti (ijodiy, hordiq chiqarish va h.k.) bilan chambarchas bog'liqdir. Jamiyatda kechayotgan virtuallashuv ijtimoiy-madaniy qadriyatlarni saqlab qolish uslublarini ishlab chiqish, shuningdek ijtimoiy-madaniy hayot transformatsiyasida vujudga keladigan turli ahloqiy muammolarning sabablarini o'rganishni taqazo qiladi.

Virtual olamda inson o'zi xohlagan imidjini, qiyofasini yaratishi, xohlaganicha boshqacha bo'lishi mumkin va bu ichki muvozanatga olib keladi. Jamiyatda insonlar haqiqiy hayotni o'zgartirishdan, o'z ustida ishlash va o'z-o'zini rivojlantirish bilan shug'ullanishdan ko'ra ko'proq hayollarini virtual olamda yaratish qulay deb bilishmoqda.

Virtual reallik muhitida ishlash yengillik, tezlik bilan birga o'yin xarakteriga ega, unda mashinadan foydalanuvchi virtual olamga o'tkaziladi: virtual obyektlarning ta'siri inson tomonidan xuddi "odatdagi" reallik kabi qabul qilinadi. Aynan virtual reallikning mana shunday interaktiv imkoniyatlari shu darajada ahamiyatli bo'lib borishiga olib kelmoqda[3].

Shunday qilib falsafiy tahlil natijasida shuni aniqladikki nazariya, amaliyot, texnologiya va falsafadagi virtual reallik oddiy narsa emas ekan. Virtual reallikni o'rganish ayniqsa, realizatsiyada juda katta bilimni talab qiladi. Agar biz virtual reallikning tajribaviy jihatdan ta'rifini bilib tushunib olsak virtual reallik nazariyasini yarata olamiz. O'z vaqtida mashhur bo'lgan fizik olim Lyudvig Bolsman ham "Tajribani ozroq bilib nazariyani yaxshi bilib bo'lmaydi" deb aytgan.

Garchi “virtual voqelik” tushunchasi ongning o‘zgargan holatlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lsa-da, bu atamaning qo‘llanilish doirasi ancha kengdir. N.A.Nosov ta’kidlaganidek “virtual voqelik tushunchasi umumiy shakldagi jismoniy, texnik, psixologik voqeliklarga taalluqli bo‘lsa, falsafiy keng kontekstda virtuallik tushunchasi nafaqat tabiiy va texnik, balki gumanitar fanlar uchun ham yagona ontologik paradigmani taklif qiladi”[6-92].

Virtual reallik borasidagi qarashlarni to‘g‘ri tahlil qilgan holda O‘zbekistonda ham virtualistika fani va falsafasini shakllantirmoq lozim va shu asosida mamlakatimizda virtual qabulxonalar, virtual korxona va ofislarni yaratish, virtual modellar va obyektlar bilan ishlash darajasini oshirish lozim. O‘ylaymizki bu O‘zbekiston fani va falsafasiga, texnika va texnologiyasiga yangicha o‘zgarishlar olib keladi, chunki virtualistika falsafasi hozirgi zamon fan falsafasi strukturasini o‘zida aks ettirib, bir qancha yo‘nalishlar doirasida rivojlanmoqda.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, zamonaviy ilmiy adabiyotda virtuallik fenomenini turli xilda tahlil qiladigan konsepsiya va g‘oyalarning uch guruhi mavjud. Birinchi guruhga virtuallikni ontologik maqomini taxlil qiladigan falsafiy va umumilmiy konsepsiyalar kiradi. Ikkinchi guruh jamiyatda virtual xodisalar paydo bo‘lishini kuzatadigan ijtimoiy g‘oyalarni kuzatadi. Uchinchi guruhga jamiyat xayoti faoliyatini umumiy qonun va mexanizmlarini bir butun va virtuallashuvni uning bir tarafi sifatida ko‘rsatadigan ijtimoiy kommunikatsiya g‘oyalari tashkil etadi.

Virtual voqelikni fan-texnika tushunchasi, shuningdek inson tafakkuri va dunyoqarashini rivojlantirish vositasi sifatida o‘rganishning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Shunday ekan ushbu voqelikni mukammal o‘rganish jamiyat hayotida ta’lim-tarbiya hamda ma’naviy-ma’rifiy sohalarida keng sharoitlar taqdim etadi.

XXI asr dunyo tarixida misli ko‘rilmagan o‘zgarishlar hamda shiddatli texnika rivoji davri bo‘lishi bilan bir qatorda axborot maydonida turli xavflarning vujudga kelganini ko‘rishimiz mumkin. Bu esa turli xalqlarning madaniyati, urf-odatlarining aralashuviga, hatto ba’zilarining yo‘q bo‘lib ketishiga borib yetdi. Shunday vaziyatda qadriyatlarni saqlab qolish va yosh avlodning qalbiga singdirish muhim vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mumammadiyev H.H “Virtuallik” tushunchasining falsafiy-tarixiy tahlili // Ilm-fan va ta’lim - istiqlool poydevori. Respublika ilmiy-nazariy seminar materiallari. 28 noyabr, 2013 y. Samarqand – Toshkent, 2013. 6 b.
2. Юсупов Р.М., Заболотский В.П. Научно-методические основы информатизации. – СПб., 2000. 305 с.

3. Санакулов. А. Ҳозирги давр фани ва фалсафасида виртуал реаллик муаммоси. Заҳириддин Муҳаммад Бобур номидаги Андижон давлат университети илмий хабарномаси. 2021.
4. Normamatova M. Axborot va virtuallik tushunchalarining epistemologik talqini// Fan va falsafada innovatsion tafakkur muammolari (ilmiy maqolalar to'plami). Samarqand: SamDU, 2010. 174 b.
5. Иванов Д.В. Виртуализация общества / Иванов Д.В. - Санкт-Петербург : Петербургское Востоковедение, 2000. - 96 с.
6. Носов Н.А. Виртуальная парадигма // Виртуальная реальность: тр. лаборатории виртуалистики. Вып. 4. М., 1998 с.92.